

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE RESEARCH OF GEOGRAPHICAL NAMES

Muxammadjonova Komilaxon Dilmuhammad qizi
Fargʻona davlat universiteti, 2-kurs magistri

Abstract. Geographical names have been attracting the attention of scientists in various fields. Issues related to geographical names have been covered in the literature on geography, history, and linguistics. In this regard, today, geographical names around the world differ from each other in their history of origin, formation, content, geographical distribution, spelling, meaning, type and language they belong to, and other characteristics.

Keywords: geographical name, toponym, geoconcept, airport, geographical object, Khorezm, geographical principle, geographical factor.

GEOGRAFIK NOMLARNING TADQIQ ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Geografik nomlar turli soha olimlarining eʻtiborini oʻziga tortib kelmoqda. Geografik nomlarga oid boʻlgan masalalar geografiya, tarix, tilshunoslikka oid adabiyotlarda yoritilib kelinmoqda. Shu nuqati-nazarda bugungi kunda butun dunyo hududidagi geografik nomlar bir- biridan kelib chiqish tarixi, shakllanishi, mazmun-mohiyati, geografik tarqalishi, yozilishi, maʼnosi, qaysi turga va tilga oid ekanligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi.

Kalit soʻzlar: geografik nom, toponim, geokonsept, aeroport, geografik obyekt, Xorazm, geografik tamoyil, geografik omil.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАЗВАНИЙ

Аннотация. Географические названия привлекают внимание ученых в различных областях. Вопросы, связанные с географическими названиями, освещались в литературе по географии, истории и лингвистике. В этой связи следует отметить, что сегодня географические названия по всему миру различаются по истории происхождения, формированию, содержанию, географическому распространению, написанию, значению, типу и языку, к которому они относятся, а также по другим характеристикам.

Ключевые слова: географическое название, топоним, геоконцепция, аэропорт, географический объект, Хорезм, географический принцип, географический фактор.

Kishilik jamiyatining hududiy tashkil etilishini tasvirlab beruvchi asosiy koʻrsatkichlardan biri muayyan oʻrnashgan joyi (oʻrni) bilan tavsiflanadigan, tabiiy yoki sunʼiy kelib chiqishga ega boʻlgan geografik obyektlardir. Amaldagi **“Geografik obyektlarning nomlari toʻgʻrisida” gi (2023-yil 15-avgust) qonunga muvofiq** ularga maʼmuriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohkoʻchalar, koʻchalar, maydonlar, bogʻlar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi obyektlari (temir yoʻl stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, koʻpriklar, razʼezdlar, yoʻllar, kanallar, suv omborlari, toʻgʻonlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, koʻllar,

muzliklar, tekisliklar, tog‘lar, tog‘ tizmalari, g‘orlar, cho‘llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag‘irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi. Bu obyektlarning har biri zamonaviy geografik fanlar tizimiga kiruvchi sohalarda (geomorfologiya, gidrologiya, iqlimshunoslik, landshaftshunoslik, kartografiya, iqtisodiy-ijtimoiy va aholi geografiyasi va boshqalar) batafsil o‘rganiladi. Mazkur geografik obyektlarning nomlari qadimdan toponim (yunon tilida $\tau\omicron\pi\omicron\varsigma$ – “joy” va $\omicron\nu\omicron\mu\acute{\alpha}$ – “nom”) deb atalgan. Geografik obyektlarning nomlari – atoqli otlar bo‘lib, ma‘lum bir mazmunga, o‘ziga xos joylashuv xususiyatiga ega, aniq bir xalq tilidan olingan so‘z bo‘lib, muayyan tarixiy sharoit yoki voqeylik munosabati bilan atalgan. Shuning uchun ham bu fan geografiya bilan bir qatorda tilshunoslik (onomastika), tarix fanlari bilan chambarchas aloqada rivojlanadi.

Geografik nomlar turlicha yo‘llar bilan paydo bo‘ladi va ba‘zan bir necha ming yillik tarixga ega. Xalq jonli tilidagi so‘zlardan tarkib topgan, hech qanday buyruq va ko‘rsatmasiz, ma‘no – mazmun, fonetik va Grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘yilgan geografik nom chinakam xalq mulkidir. Toponimikaning yuqorida ko‘rsatilgan qonuniyatlari bilmasdan turib, faqat chiroyli so‘zlardan iborat geografik nomlar qo‘yish esa tarixga, tilga, fanga ko‘ngildagidek xizmat qila olmaydi.

Geografik nom – jamiyatdagi real voqealarni ifoda etadi. Shu bois, nom geografik obyektning qaysi bir xususiyatini ifoda etishidan qat‘iy nazar, u jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, geografik nom har qanday ijtimoiy hodisa kabi, muayyan tarixiy davrda paydo bo‘ladi va ularda insoniyatning anglash qobiliyatining evolyusiyasi mujassamlashgan.

Ma‘lum kishilik jamoasi uchun ahamiyati yuqori bo‘lgan, o‘ziga xos qadr- qimmatga ega bo‘lgan va barqaror o‘zgarish qiyofasiga ega bo‘lgan geografik nomlar – **geokonsept** hisoblanadi.

Geokonseptni **toponim + qiyofa + joy (hudud)** formulasida tasavvur qilish mumkin. Geokonseptni boshqa geografik nomlardan farqli tomoni aniq chegaraga ega emasligi, biroq doimo aniq ifodalangan o‘zining madaniy, tarixiy, va geografik qiyofasiga ega bo‘lganligi bilan ifoda etiladi. Masalan, Qo‘qon, Xorazm, Buxoro, Farg‘ona oddiy toponim yoki geografik nom emas balki yuqorida ta‘kidlangandek madaniy, tarixiy va geografik qiyofasiga ega bo‘lgan geokonsept hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi jamiyatga toponimika qanday amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin, degan masala ko‘pchilikni qiziqtiradi. Shu sababdan, toponimikaning jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichidagi amaliy yordamini quyidagi besh tamoyil asosida o‘rganish maqsadga muvofiq:

Birinchisi – nomning adreslik funksiyasi. Hozirgi zamonda ham, uzoq tarixiy davrlarda ham, ma‘nosidan qat‘iy nazar, geografik nomlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy vazifasi, uning adreslik funksiyasi hisoblangan. Shu sababdan, har qanday nom - geografik ob‘ektning yorlig‘i, unga birkirilgan maxsus so‘zdir. Geografik nomning bu o‘ta muhim va amaliy funksiyasi doimo bir maromda uzluksiz ishlab turishi lozim. Ba‘zan, muayyan hududda bitta nomning bir necha bor takrorlanishi, joy nomini adreslik funksiyasiga putur yetkazadi. Xususan, bir viloyat yoki, ayniqsa, bir tuman miqyosida bitta nom bir necha bor takrorlansa, nom mazmun jihatdan qashshoqlashadi va eng asosiysi davlat idoralari, transport, aloqa, meditsina, yong‘in xavfsizligi kabi tashkilotlar ishida chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Geografik tamoyillar asosida yaratilgan toponimlar bir qancha afzalliklarga ega. Ular orasida eng muhimi nomlar tez-tez o‘zgarib, uzoq vaqt saqlanib qoladi, joyning hozirgi kunda o‘zgarib, unitilib ketgan tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlari, dastlabki landshaft turi

haqida qimmatli ma'lumot beradi. Geografik omillar asosida paydo bo'lgan nomlarning yana bir afzalligi, ularni adreslik funksiyasini to'la bajarishga imkon paydo bo'ladi, sababi nomlashda ko'cha yoki mahalladagi asosiy, o'ziga xos tabiiy yoki iqtisodiy-ijtimoiy ob'ektga mo'ljal olinib, geografik nomning darakchilik xususiyati namoyon etiladi.

Ikkinchisi – nomning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Har bir geografik nomda muayyan ma'no va mazmun yashirin, ularni o'rganish kishida o'tgan ajdodlariga nisbatan faxr va g'urur hissini uyg'otib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Masalan, Fransiyaning Sankt-Peterburgdagi konsuli, diplomatik qabul vaqtida shaharning sobiq hokimi V. Matvienkoga murojaat qilib, shahardagi hozirda Robesper nomi bilan ataladigan ko'chaga, uning qadimgi nomi – Fransiyaning qayta tiklashni iltimos qilgan. Matvienko hayron bo'lib: „ Naxodki, siz Robesperni yomon ko'rsangiz ” deb so'raganda, konsul „ aslo unday emas, men Fransiyaning sevaman! ” deb javob bergan. Geografik obyektlar nomi „ o'li ” so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan ma'naviy ozuqa manbaidir. Shu sababdan, radio va televidenie, davriy matbuot, ilmiy tadqiqot muassasalariga aholining turli qatlamlaridan shahar va qishloqlari nomlarini izohlashni so'rab murojaat qilishadi. Qiziquvchilarning istak va xohishi inobatga olinib, so'ngi yillarda gazeta va jurnallar sahifalarida, ikmiy-ommabop nashrlarda toponimik mavzularga doir bir qator maqolalar e'lon qilindi. Geografik kitoblar, nomlar ommabop toponimik lug'atlar, ma'lumotnomalar nashr qilinmoqda. Bularning barchasi shubhasiz, xalqning, xususan yoshlarning kamol topishi, ong va tafakkurining shakllanishi hamda ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishda xizmat qiladi.

Uchinchisi – nomning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Toponimlar ma'nosini izohlash, geografik obyektning o'ziga xos xususiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot beradi va o'quvchilar bilimlarini mustahkamlaydi. Ma'lumki, geografik nomlar turli tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham tarixchilar, arxeologlar va etnograflar toponimikaga tobora ko'proq murojaat qilishmoqda. Toponimist olimlar, Yer sayyorasini anglash hamda buyuk geografik kashfiyotlar tarixini o'rganish bevosita toponimika bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblashadi. Ayniqsa, geografiya tarixi boshqa fanlarga nisbatan toponimikaga ko'proq murojaat qiladi. Toponimika asoslarini bilish kartograf va topograflar uchun ham juda muhim. Filologlar til tarixi, uning shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari kabi muammolar yechimini topishda ko'proq atqli otlarga, ya'ni til tarkibini boshqa lug'aviy qismlari bilan birga uzviy aloqada rivojlangan toponimik leksikaga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb e'tirof etishadi.

To'rtinchisi – geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash. Ma'lumki, joy nomlarining o'zgarishi hamda yangi nomlarning berilishi doimiy jarayon, u jamiyatdagi o'zgarishlarga befarq emas va ko'pincha tarixiy sharoit taqozosi bilan amalga oshadi. Geografik nomlar orasida inson qo'li bilan yaratilgan obyektlar (shahar, qishloq, ko'cha va hokazo) nomlari ko'proq o'zgaradi. Shuni ham qayd qilish kerakki, geografik nomlarni o'zgartirishga ko'p ham maftun bo'lish kerak emas, zamonaviy toponimlar ishtiyoqida tarixiy joy nomlaridan voz kechish mutlaqo yaramaydi. Yuqorida qayd qilingandek, bu jarayon ko'proq tarixiy voqealar hamda jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, lisoniy va boshqa o'zgarishlar bilan bog'liq. Geografik obyektning nomini o'zgartirish zaruriyati paydo bo'lgan taqdirda, har bir holatga alohida yondashgan ma'qul, nima sababdan almashtirish zaruriyati paydo bo'lganligini aniqlash darkor. Joy nomi o'zgardimi obyekt va uning nomi bilan bog'liq axborotlar ham o'tmishga aylanadi, har bir toponim o'z davrining mahsuli ekan, yangi nom bilan atalgan obyekt qancha qadimiy bo'lmasin, xuddi endigina barpo etilgan aholi punktidek tuyuladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, viloyat, shahar va tumanlarda eski tuzum mafkurasi bilan bog‘liq bo‘lgan, sho‘rolar davri g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi, hech qanday milliy ma‘no, xususiyat kasb etmaydigan nomlar bilan atalib kelingan yuzlab geografik obyektlar nomlari o‘zgartirildi. Ba‘zan, toponimning asl ma‘nosini bilmasdan turib, uni o‘zgartirish hollari ham uchraydi. Shuni ta‘kidlash joizki, real hayotda nomning paydo bo‘lishiga asosiy turtki bo‘lgan sababni aniqlamasdan turib, uni o‘zgartirish qonunga xilof hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi „Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida“ gi Qonunida (2023 yil 15 avgust 386-son) belgilangandek, geografik obyektlar nomlarining birini boshqasiga o‘zboshimchalik bilan almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi „Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida“ gi Qonunida (2023 yil 15 avgust 386-son)
2. Ахмадалиев Ю., Комилова Н. Манзиллар. Номлар. Маънолар.- Фарғона, 2005.
3. Қораев С. Ўзбекистон топонимларини ҳосил қиладиган асосий терминлар ва бошқа сўзлар луғати.-Т.: Ўзгеодезкадастр.2004.
4. Qorayev S. Toponimika.-Т.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
5. <https://Lex.uz>